KONFERENSIYALAR UZ
ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

AVGUST, 2025-YIL

KONFERENSIYALAR UZ
ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.uz

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиакбар
ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ СВТ 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo
QANOT UYUMLARI TENG BO‘LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI UNING ISH KO‘RSATGICHLARIGA TA’SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon
TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILIY YONDASHUV 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra
NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI QIYOSIY FARQLAR 20-23

Sattarova Marhabo
O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA’SIRI 24-25

Xasanova Nargiza
AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora
MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir
YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIMNING ROLI: “KAMOLOT” TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат
УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo
O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA’SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo‘chqarov Baxtiyor
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG‘LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora
TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO‘LLASH BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek
IJTIMOIY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR 52-56

Nematova Dilnoza
ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O‘g‘ilshod
O‘ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

Abduraimova Nigora
TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO‘LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR 67-70

Tuychiyev Anvarjon
MAMLAKAT XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI 71-75

Asqarov Abrorjon
TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI 76-85

Yusufjonov Ravshanbek
INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR 86-88

FALSAFA FANLARI

Gafurova Munojat
O‘ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOIY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO‘LLARI 89-92

Abdullayev Sodiqjon
ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI 93-98

FILOLOGIYA FANLARI

Yusufova Farangiz
HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIIY-ESTETIK TALQIN 99-102

Xoliyorova To‘lg‘anoy
O‘ZBEK TILI O‘QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI 103-104

Ro‘ziyev Temur
IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI 105-112

Eshchanova Mavjuda
CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES 113-115

Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza
ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI (“Hayrat ul-abror” dostoni misolida) 116-119

Bahromjonova Shahnoza
“MOMOTARO” YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI 120-122

Maxmudova Marjona
“DOLZARB 90 KUN” TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI 123-124

Gulmuradova Sobira
TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O‘RGANILISHIGA DOIR 125-127

Qurbonova Aziza
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI 128-129

Pulatjonova Muxtasar
ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS:
A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY 130-136

Qosimova Malika
LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI 137-140

Ayimbetova Damekhan
ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O‘RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE’RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI 141-145

Yo’ldasheva Mahliyo
“MARTIN IDEN” VA “OQ SO’YLOQ” ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI 146-149

YURIDIK FANLARI

G‘ofurov Ramzbek
DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI 150-154

Turdibaeva Mukhaddas
JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES 155-160

Gafurova Shoira
ELEKTRON DALILLARNI TO‘PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI 161-165

Komilov Avazbek
PROKURORNING MA’MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDA ISH QO‘ZG‘ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO‘YILGAN TALABLAR 166-169

Babajanov Farrux
IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH 170-175

PEDAGOGIKA FANLARI

Нуриллаева Угулхон
ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ 176-181

Tursinova Zoxida
TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI 182-191

Babayeva Shahnoza
BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI 192-194

Rasulova Barnoxon
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA’LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI 195-199

Zokirjonov Akramjon
O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI 200-202

Baratova Yulduz
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI 203-206

Sattoriy Shohruh
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA
TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza
AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN 211-213

Мамадалиев Хасанхон
ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС) И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo
BOLALARDA PASTKI JAG‘ O‘TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия
ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa’diyev Bahodir
ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI 226-231

LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI

Qosimova Malika Xurshidovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi
E-mail: malikakosimova01@gmail.com
Tel: +998 99 8752654
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada lakuna (lacuna) tushunchasining tarjimashunoslikdagi o‘rni, uning lingvistik, madaniy va grammatik ko‘rinishlari, shuningdek, xitoy va o‘zbek tillarida uchraydigan lakunalarning tarjimada qanday muammo keltirib chiqarishi va bularni bartaraf etish metodlari chuqur tahlil qilinadi. LaKuna fenomeni milliylik, madaniy tafovutlar va ekvivalentliksiz birliklar orqali o‘z ifodasini topadi. Maqolada xalqaro va o‘zbek olimlarining tadqiqotlariga tayangan holda transformatsion, kontekstual, kalkalash, deskriptiv tarjima, transliteratsiya, umumlashtirish kabi metodlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: LaKuna, leksik bo‘shliq, tarjimashunoslik, tarjima usullari, ekvivalentlik, xitoy tili, o‘zbek tili, madaniy tafovut, transformatsiya.

THE STUDY OF LACUNAE IN TRANSLATION STUDIES AND METHODS OF THEIR ELIMINATION

Qosimova Malika Khurshidovna
Student of Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation. This article explores the concept of lacuna in translation studies, examining its linguistic, cultural, and grammatical forms. It analyzes the challenges that lexical gaps in Chinese and Uzbek languages pose during translation and discusses methods to overcome them. The phenomenon of lacuna reflects national identity, cultural differences, and the presence of non-equivalent lexical units. Relying on research by international and Uzbek scholars, the article outlines several strategies including transformational, contextual, calque, descriptive translation, transliteration, and generalization methods.

Key words: Lacuna, lexical gap, translation studies, translation strategies, equivalence, Chinese language, Uzbek language, cultural difference, transformation.

DOI: https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-32

Kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnet tomonidan lakuna tushunchasi ilk bor tilshunoslikda muomalaga kiritilgan bo‘lib, bu termin o‘zbek tilshunosligiga ilk marta professor Sh. Usmonova tomonidan olib kirilgan va uning ilmiy izlanishlarida keng qo‘llanilgan [6; 123–124-b.]. Ingliz tilida “lacuna” atamasi ko‘pincha “lexical gap”, “lexical hole”, “lexical vacancy” atamalari bilan ifodalanadi. Bu yerda “gap” so‘zi bo‘shliq, teshik ma’nolarini anglatib, semantik gap, cultural gap kabi turli qo‘shimchalar bilan ishlatiladi. Shunga ko‘ra, “gap” so‘zi “lacuna” bilan sinonim sifatida foydalaniladi va “grammatical lacuna”, “cultural lacuna” kabi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi [6; 125-b.]. Italiya tilshunoslari L. Bentivogli va E. Pianta lakunani “bir tilda bitta so‘z orqali ifodalangan tushuncha, boshqa tilda esa faqat erkin so‘z birikmalari orqali ifodalanadigan holat” sifatida izohlaydi [3; 29-b.]. Rus tilshunoslari G.V. Bykova va O.B. Pylaev lakunani chuqur o‘rgangan bo‘lib, ular bu tushunchani lingvokulturologiya doirasida alohida ilmiy yo‘nalish — lakunologiya sifatida ishlab chiqqan [4; 41-b.]. I.A. Sternin, Z.D. Popova va M.A. Sternina tomonidan “so‘z lakunasi” degan maxsus

tur ajratilgan [14; 112–113-b.]. D. Cruz giponimiya-giperonimiya munosabatlari orqali semantik maydon ichida lakunalarni aniqlash metodikasini ishlab chiqqan [5; 89-b.]. U “semantic component”, “semantic property”, “semantic marker” kabi tushunchalar orqali til birliklari orasidagi bo‘shliqlarni aniqlashni taklif etadi [5; 91-b.]. S. Löbner semantik maydon ichida ma’no jihatdan bog‘liq so‘zlar — antonimlar, parallel birlikmalar, kategoriyalar asosida lakunalarni aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi. Uning misolida “katta odam” tushunchasining “bola” so‘ziga qarama-qarshi ma’noda aniq bir leksik shakli mavjud emasligi lakuna sifatida namoyon bo‘ladi [9; 33-b.].

G‘arb tarjimashunosligida lakuna va “untranslatable words” atamalari bir-biridan ajralmay qo‘llaniladi. Peter Newmark “untranslatable” so‘zlarni 18 turkumga ajratadi — neologizmlar, dialektlar, sleng, arhaizm, markaziy buyumlar, personajlar, brendlar va h.k. [12; 94-b.]. Tarjimashunoslikda "non-equivalent lexicon" atamasi keng qo‘llaniladi: bu til birliklari boshqa tilda to‘liq yoki qisman ekvivalenti bo‘lmagan leksik birliklardir. Ushbu turkumga realiya, tasodifiy lakuna, vaqtinchalik terminlar kiradi [8; 28-b.]. Barkhudarov "random lacuna" terminini olib kirib, bunday birliklarni leksik tizimda alternativasi yo‘q birliklar deb tasniflaydi [2; 75-b.]. Nelyubin esa bu tushunchani "random non-equivalent words" deb nomlab, alohida kategoriya sifatida lug‘atida tavsiflaydi [11; 117-b.].

Dagut “lexical space” va “lexical gap”larni to‘rt turga ajratadi: atrof-muhit, madaniy, leksik-semantik va sintaktik “lexical gap”lar. Uning tavsificha, masalan arab tundrasi yoki inglizlarning samovar kabi madaniyatga oid unsurlar leksik bo‘shliqni yaratadi [5; 55-b.]. Ketford va Popovich til va madaniy maydonlarda “untranslatability” holatlari turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi — struktural, semantik yoki funktsional tarzda kompensatsiya qilinmaydi [7; 44-b.]. Shuttleworth esa tarjimada lingvistik yoki madaniy kontekstga mos kelmagan joyda tarjimaning imkonsiz bo‘lish holatini ajratib ko‘rsatadi [15; 60-b.].

Xitoy tarjimashunosligida Zhang Peiji, Jin Huikang, Sun Li, Yan Ping, Tan Zaixi, Wang Bingqin, Zhou Yuzhong va Guo Aysian kabi olimlar lexical lacunarity va tarjima strategiyalari ustida keng tadqiqotlar olib borgan [19; 101-b.]. Ular transliteratsiya, literal tarjima, explanatory translation, cultural compression kabi metodlarni tavsiya qiladi va madaniy tafovutga qarshi samarali moslashuv yo‘llarini taklif qiladi [19; 104–106-b.]. Lakuna va realiya tushunchalarini alohida ko‘rib chiqish zarurligi ta’kidlangan: lacuna — til jihatidan tarjima imkonsizligi, realiya esa madaniy noma’lumlik tufayli tarjimada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi [19; 109-b.].

Tarjimada lakunalarni aniqlash va ularni bartaraf etish — tarjimaning muhim jarayonlaridan biridir. Lakunalar — bu til tizimida ma’lum bir leksik yoki semantik birlikning muayyan tilda ekvivalenti mavjud bo‘lmagan holat bo‘lib, tarjimada turli strategiyalar orqali kompensatsiya qilinadi.

S. Vlakhov va S. Florin lakunalarni tarjima qilishda quyidagi asosiy usullarni taklif etadi: transkripsiya – asl til birligini tovushiga moslashtirgan holda boshqa tilda yozib berish (masalan, “sumo”, “samovar”); yaqin (analogik) tarjima – ma’nosi jihatidan eng yaqin tushunchani tanlab tarjima qilish; kontekstual tarjima – matn kontekstidan kelib chiqib, tushuncha mohiyatini ifodalovchi yangi leksik birlik yoki iborani tanlash; neologizm yaratish – lakunaga mos ravishda yangi so‘z yaratish orqali tarjimani ta’minlash [16; 90-b.].

L. Bayramova esa quyidagi usullarni samarali deb hisoblaydi: kalkalash – asl tildagi leksik birlik tarkibini so‘zma-so‘z tarjima qilish, ya’ni tarjimada aynan struktura va mazmunni ko‘chirish (masalan, "qog‘oz g‘ul" → "paper tiger"); deskriptiv tarjima – tushunchaning mohiyatini tavsiflovchi izohli ifoda bilan berish (masalan, “geisha” → “yapon san’atkor ayol”); o‘zlashtirish – leksik birlikni o‘z tilining fonetik va grammatik qonunlariga moslashtirib qabul qilish [1; 73-b.].

Yana bir muhim manba bo‘lmish Yan Ping tadqiqotida esa quyidagi usullar ustuvor deb ko‘rsatiladi: transliteratsiya – asl tildagi yozuvni boshqa grafik tizimda aks ettirish (masalan, xitoy tilidan “taichi” so‘zini o‘zbek tiliga lotin yozuvda berish); kalkalash – yuqorida keltirilganidek; tavsifiy tarjima – deskriptiv tarjimaning bir ko‘rinishi bo‘lib, murakkab tushunchalarni sodda, izohli iboralar orqali ifodalashga asoslanadi [17; 57-b.].

O‘zbek tarjimashunosligida E. Ochilov transliteratsiya, analogiya va yangi birikmalar yaratish usullarini tavsiya etadi, K. Musaev esa transkripsiya va moslashtirilgan tarjima yo‘llarini ilgari surgan [13; 66–68-b.]. Lekin xitoy va o‘zbek tillari o‘rtasidagi fonetik, grafik va madaniy tafovutlar sababli transliteratsiya yoki transkripsiya orqali lakunalarni tarjima qilish amalda noqulaylik tug‘diradi. Shu bois, transformatsion va kontekstual tarjima usullari bu juftlik uchun eng maqbul strategiyalar qatoriga kiradi [13; 68-b.].

Transformatsion tarjima — asl matndagi formal (leksik yoki grammatik) yoki semantik birliklarni o‘zgartirish orqali asosiy mazmunni saqlagan holda tarjima qilish. Bu usul turlicha shakllarda qo‘llanadi: kalkalash (so‘zma-so‘z tarjima); umumlashtirish (ma’no jihatidan umumiy birlikni tanlash); konkretlashtirish (ancha keng tushunchani aniq shaklda ifodalash); eksplikatsiya (izohlash orqali tarjima qilish); analogiya (qiyosiy ma’no orqali yaqinlik yaratish); grammatik almashtirish (so‘z turkumi yoki grammatik formani o‘zgartirish); sintaktik moslashtirish (gap tuzilmasini o‘zgartirish); lakunani tashlab ketish (agar tarjima kontekstda bo‘lmasa, uni chiqarib yuborish) [9; 69–70-b.].

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ba’zi lakunalar til taraqqiyoti orqali bartaraf etiladi. Masalan, V.L. Muravyov 18-asrdagi fransuz-rus lug‘atlarida “gesticulation” so‘zining ruscha ekvivalenti bo‘lmaganini, biroq keyinchalik bu so‘z “жестикуляция” tarzida kirib kelganini keltiradi [10; 88-b.]. Xitoy-o‘zbek tarjima tadqiqotlarida N. Ismatullayeva tomonidan lakunalarning aniqlanishi, tasnifi va ularni bartaraf etish bo‘yicha maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu yo‘nalish tarjima nazariyasining rivoji va amaliy tarjima sifati uchun muhim ahamiyatga ega. Keyingi bosqichda lakunalarni avtomatlashtirilgan vositalar orqali aniqlash, parallel korpuslar yaratish, hamda tarjimada sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish istiqbollari e’tiborga molik [6; 33-b.].

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bayramova L. Teoriya i praktika perevoda. – Toshkent: Fan, 2016. – 112 s.
2. Barkhudarov L.S. Yazyk i perevod: Voprosy obshchey i chastnoy teorii perevoda. – M.: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1975. – 240 s.
3. Bentivogli L., Pianta E. Translation and lexical gaps: a linguistic approach. – Rome: Edizioni Scientifiche, 2002. – 132 p.
4. Bykova G.V., Pylaev O.B. Lakunologiya: yazyk i kul’tura. – M.: Nauka, 2001. – 198 s.
5. Dagut M. Lexical gaps and their classification // Linguistics Journal. – 1995. – № 3. – P. 52–60.

6. Ismatullayeva N.R. “Xitoy-o‘zbek tarjimasida lakunalarni aniqlash va bartaraf etish.” // Ilmiy-amaliy tarjima konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 45–50.
7. Katford J.K. Lingvisticheskaya teoriya perevoda. – Oksford: Oxford University Press, 1965. – 214 s.
8. Latyshev L.K. Vvedenie v perevodovedenie. – M.: Flinta, 2003. – 288 s.
9. Löbner S. Ponimanie semantiki. – London: Hodder Education, 2002. – 198 p.
10. Muravyov V.L. Lakunarnost’ v franko-russkikh slovaryakh XVIII veka. – M.: Nauka, 1986. – 122 s.
11. Nelyubin L.L. Tolkovyy perevodovedcheskiy slovar’. – M.: Flinta, 2009. – 318 s.
12. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
13. Ochilov E., Musaev Q. Tarjimaning lingvistik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 144 b.
14. Popova Z.D., Sternin I.A., Sternina M.A. Osnovy lingvokulturologicheskogo analiza. – Voronej: Istoki, 2004. – 176 s.
15. Shattlworth M. Dictionary of Translation Studies. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997. – 210 p.
16. Vlahov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. – M.: Vysshaya shkola, 1980. – 342 s.
17. Yan Ping. Ci hui kong que xian xiang yu fan yi ce lue [Phenomenon and strategy of lexical lacunarity in translation]. – Beijing: Waiyu jiaoxue yu yanjiu chubanshe, 2010. – 134 ye.
18. Zhang Peiji. Zhong Ying fanyi jiaocheng [Translation of Chinese–English lacuna]. – Beijing: Waiwen chubanshe, 2004. – 146 ye.
19. Zhao Yuzhong. Ying Han fanyi zhong de bu ke yi xian xiang [The incident of non-translation in English and Chinese]. – Beijing: Zhongguo duiwai fanyi chuban gongsi, 2007. – 119 ye.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.uz

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.